



“O‘zmetkombinat” AJ
Kuzatuv kengashi qarori bilan
“TASDIQLANGAN”
2025-yil 15-14un
12-sonli bayonnoma)

**“O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi
komplayens xizmati to‘g‘risidagi
NIZOM**

Toshkent – 2025-yil

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. "O'zmetkombinat" AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Komplayens xizmati to'g'risidagi Nizom (keyingi o'rinlarda Nizom) "O'zmetkombinat" AJ (keyingi o'rinlarda Jamiyat deb yuritiladi) Komplayens xizmati maqomi, maqsadi, asosiy vazifalari, faoliyati, huquqlari, majburiyatlari va mas'uliyatini belgilaydi.

1.2. Komplayens xizmati Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori bilan tashkil etiladi va Jamiyat Kuzatuv kengashiga bevosita funksional bo'ysunuvchi va Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasiga hisobdor tashkiliy javobgarlikka ega bo'lgan mustaqil bo'linma hisoblanadi.

1.3. Komplayens xizmati rahbari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyat Kuzatuv kengashi qarori bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. Komplayens xizmati rahbari Jamiyat Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi hamda Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasiga tashkiliy hisobdordir.

1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi 2021-yil 6 iyundagi PQ-5177-son qarorining 4-bandi talablariga muvofiq Komplayens xizmati rahbari Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan o'tkazildigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinishi va uni lavozimdan ozod etish masalasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan kelishilishi zarur.

1.5. Komplayens xizmati o'z faoliyatini Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan yillik ish rejalariga muvofiq amalga oshiradi.

1.6. Komplayens xizmatning tashkiliy tuzilmasi va shtat jadvali biznes-jarayonlarning soni va xususiyalaritidan, Jamiyat xodimlarining soni, faoliyat yo'nalishlari asosida Odob - axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi bilan kelishilgan holda Kuzatuv kengashining qarori bilan belgilanadi hamda komplayens xizmati faoliyati va yuklangan vazifalarga mos ravishda resurslar bilan ta'minlanadi. Komplayens xizmati byudjeti har yili Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi bilan kelishilgan holda Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlanadi.

II. KOMPLAYENS XIZMATI DARAJASI

2.1. Har qanday shaxslar ta'siridan mustaqillikni, obyektivlikni va xolislikni ta'minlash maqsadida komplayens xizmati bevosita Jamiyat Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi va o'z faoliyati to'g'risida unga hisobot beradi.

2.2. Komplayens xizmati o'z faoliyatida o'ziga yuklangan vazifalar va majburiyatlarini lozim darajada bajarish uchun Boshqaruv a'zolari, Jamiyat ijroiya apparati va boshqa shaxslarning ta'siridan mustaqildir.

2.3. Boshqaruvning komplayens xizmati faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi. Komplayens xizmati va Jamiyat Boshqaruvi o'rtasidagi munosabatlar mustaqillik tamoyiliga asoslanishi kerak, chunki komplayens xizmatning tashkiliy va funksional mustaqillik darajasi uning obyektivligiga bevosita ta'sir o'tkazadi.

2.4. Komplayens xizmati xodimlari faoliyatning obyektivligi va xolisligini ta'minlash uchun Jamiyatda komplayens nazoratini amalga oshirishda (masalan, korrupsiyaga qarshi, monopoliyaga qarshi, sanksiyalarga rioya qilishni nazorat qilish) manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida, keyinchalik tekshirilishi (baholanishi)

mumkin bo'lgan har qanday, shu jumladan operatsion faoliyatlarga jalb qilinmasligi kerak.

III. TERMIN VA ATAMALAR

3.1. Ushbu Nizomda foydalanilgan terminlar va atamalar quyidagi ma'nolarga ega:

amaldagi qonunchilik - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, komplayens xavflarni boshqarish bo'yicha xalqaro normalar va standartlar, shuningdek Jamiyat faoliyat yuritayotgan mamlakatlar qonunchiligi;

komplayens - Jamiyat faoliyatining amaldagi qonun hujjatlariga va belgilangan tashqi va ichki me'yorlar va qoidalarga hamda operativ, yuridik, protsessual normalarga muvofiqligi;

komplayens nazorat - Jamiyat faoliyatining amaldagi qonunchilik va belgilangan tashqi va ichki qoidalar va me'yorlarga muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan chora – tadbirlar va mexanizmlar tizimi;

komplayens xavflar - davlat va kontragentlar oldidagi majburiyatlarni bajarmaslik hamda me'yorlar, Siyosatlar, qoidalar va qonunlarga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlar, jarimalar va undiruvlar, shuningdek yuridik sanksiyalar;

komplayens xavflar menejmenti – xavflarini amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlar ehtimoli va ta'sirini kamaytirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish jarayoni;

komplayens tekshiruv – komplayens nazorat qilish obyektlarini muvofiqlik talablariga mosligini va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavflarni aniqlash bo'yicha harakatlar majmui;

komplayens nazorati obyektlari - Jamiyatning boshqaruvi, xodimlari va tarkibiy bo'linmalari;

komplayens nazorat predmeti - Jamiyat rahbariyati, xodimlari va tarkibiy bo'linmalarining amaldagi qonunchilik, o'rnatilgan tashqi va ichki operatsion, huquqiy, protsessual qoidalariga - muvofiqlik faoliyati;

ijroiya apparati – boshqaruv funksiyalarni bevosita amalga oshiradigan yoki boshqaruvni ma'muriy, tashkiliy va texnik ta'minlash bo'yicha ishlarni bajaradigan xizmatlar va bo'linmalar majmui;

kontragentlar - Jamiyat bilan iqtisodiy va (yoki) fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirgan shaxslar (yuridik va jismoniy);

uch bosqichli himoya modeli (yoki “3LoD” - “3 Lines of Defense”) – ichki nazorat va xavflarni boshqarish modeli (birinchi himoya bosqichi xavflarni o'z zimmasiga olganlar – xavf egalari (tarkibiy bo'linmalar), ikkinchi himoya bosqichi – xavflarni nazorat qilish vositalari va ularga rioya qilish uchun ma'sul bo'lganlar, uchinchi himoya bosqichi – ichki audit).

boshqaruv - Jamiyatning yuqori mansabdor shaxslari va kollegial boshqaruv organlari a'zolari;

xodim - Jamiyat bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxs;

tarkibiy bo'linmalar - tasdiqlangan tashkiliy tuzilmaga muvofiq Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari.

JDLTMvaOQQTM - jinoiy daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish.

IV. KOMPLAYENS XIZMATI, MISSIYASI, TAMOYILLARI, MAQSADLARI VA VAZIFALARI

4.1. Komplayens xizmatining asosiy maqsadi Jamiyatda, shuningdek, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ISO37001:2016 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, tashkilot tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta'minlashdan iborat.

Quyidagilar komplayens xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish;

Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish.

Komplayens xizmati o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

a) Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish sohasida:

Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Jamiyat rahbariga kiritadi;

Jamiyatning faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

Jamiyat tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar loyihalarini Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazaridan baholaydi va xulosalar beradi;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni Agentlikka kiritib boradi.

b) Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini yaratadi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali Jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

Jamiyatda yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reestri yoki o'tkazilgan xizmat tekshiruvlarini ro'yxatga oladigan boshqa tegishli hujjatda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri va to'liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va tashkilot bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

Jamiyat xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

Jamiyat faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so'rovlar o'tkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarliligini nazorat qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Jamiyatda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;

har chorakda va Jamiyat rahbari talabiga ko'ra tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ulardagi korrupsiyaviy holat haqida tashkilot birinchi rahbariga ma'lumot kiritib boradi;

v) Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish sohasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Jamiyatga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ISO37001:2016 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga mosligini ta'minlaydi;

Jamiyat xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Jamiyat xodimlari, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlardagi xodimlar uchun korrupsiyani oldini olish bo'yicha o'quv materiallarini ishlab chiqadi;

o'quv rejaga muvofiq tashkilotning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglarning o'tkazilishini hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qiladi;

Jamiyat tizimi xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarida ishtirok etadi;

Jamiyatning rasmiy veb-saytidagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga joylashtirilgan ma'lumotlarni yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Jamiyat tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va Jamiyatning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

Jamiyat tizimidagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;

odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshiradi;

amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

Jamiyat tizimida bo'linmalar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga

qaratilgan konferentsiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi;

Jamiyat faoliyati uning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar o'tkazadi;

g) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

qonunchilik hujjatlari bilan Jamiyat zimmasiga yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuboradi va ularning so'rovlariga javob berishda ishtirok etadi;

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi.

4.2. Komplayens xizmatining vazifasi Jamiyat boshqaruvi organlariga komplayens funksiyasini amalga oshirish pozitsiyasi bilan strategik maqsadlarga erishishda yordam berish, ya'ni belgilangan tashqi va ichki qoidalar, hujjatlarga rioya qilmasligi natijasida Jamiyatga salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni bartaraf etishdir.

4.3. Komplayens xizmati o'z faoliyatini qonuniylik, xolislik, ochiqlik va shaffoflik, shuningdek Komplayens xizmati va har bir xodimining individual mustaqilligi tamoyillari asosida mustaqil ravishda amalga oshiradi.

4.4. Komplayens xizmati faoliyatining maqsadlari:

- Jamiyat faoliyatining qonun hujjatlari talablariga, tashqi va ichki me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligining maqsadli darajasiga erishish;

- biznes jarayonlariga muvofiqlikni joriy etishdan iqtisodiy samaraga erishish;

- komplayens xavflarini boshqarishning zamonaviy tizimini yaratish, shu jumladan komplayens xavflar darajasini aniqlash, ularni baholash, hujjatlashtirish, kamaytirish va monitoring qilish;

- Jamiyatning sheriklari/mijozlari, xodimlari va uchinchi shaxslarning qonunlar, qoidalar va standartlarga rioya etishlarini va ularning huquqlari himoya qilinishini ta'minlash;

- korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, firibgarlik, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish, ishbilarmonlik odob-axloqini mustahkamlash va komplayens madaniyatini rivojlantirish.

4.5. Komplayens xizmati vazifalari:

a) tashqi va ichki me'yoriy hujjatlar talablariga va eng sara xalqaro komplayens amaliyotlariga muvofiqlikni ta'minlash;

b) komplayens sohasidagi qonunlar, qoidalar va standartlarga rioya etilishini o'rganish, shu jumladan, korrupsiyaning oldini olishga, firibgarlikni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini o'rganish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, normativ

hujjatlarga muvofiq manfaatlar to'qnashuvini boshqarish;

c) biznes uchun komplayensning ijobiy qo'shilgan qiymatiga erishish, rioya qilinishi kerak bo'lgan qonunlar, qoidalar va standartlarga rioya qilmaslik natijasida Jamiyatning mumkin bo'lgan moliyaviy va ishbilarmonlik obro'siga zarar yetishiga yo'l qo'ymaslik;

d) komplayens boshqarish uslubiyotini ishlab chiqish va komplayens funksiyasini Jamiyatning ish amaliyotiga integratsiya qilish;

e) komplayens xavflarni aniqlash, ularni tahlil qilish, baholash va monitoring qilish, komplayens xavflarga javob choralarini belgilash;

f) komplayens xavflarini boshqarish bo'yicha Jamiyat tarkibiy bo'linmalari ishini muvofiqlashtirish;

g) uch bosqichli himoya ("3LoD" - "3 Lines of Defense") modelini amalda qo'llash va tadbiq qilish;

h) korrupsiyaga qarshi kurashish va firibgarlikning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida monitoring va nazoratni amalga oshirish, manfaatlar to'qnashuvini hal qilish, ishbilarmonlik odob-axloqini mustahkamlash va komplayens madaniyatini rivojlantirish;

i) Kuzatuv kengashini Jamiyat holati va komplayensni boshqarish tizimining samaradorligi to'g'risida ishonchli va mustaqil axborot bilan ta'minlash;

j) komplayensni nazorat qilish samaradorligini tahlil qilish, baholash va yaxshilash;

k) ichki audit va vakolatli davlat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijasida Jamiyat faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklar va kamchiliklar, korrupsiya va/yoki firibgarlik holatlari faktlari bo'yicha o'z vaqtida bartaraf etilishi hamda mijozlarning, Jamiyat xodimlari, uchinchi shaxslar va ularning kelajakda huquqlari buzilishini takrorlanishining oldini olish uchun ko'rilgan choralar ustidan nazoratni amalga oshirish;

l) Jamiyatning aloqador shaxslar bilan operatsiyalarini nazorat qilish;

m) mijozlarni tegishli tekshirish va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishga yo'naltirilgan ichki nazorat choralarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tegishli vakolatli organlarning ishiga ko'maklashish;

n) komplayens masalalari bo'yicha tushuntirishlar, ma'lumotlar va maslahatlar berish hamda treninglar o'tkazish;

o) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Jamiyat biznes-jarayonlariga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq ichki me'yoriy hujjatlarga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritilishini nazorat qilish.

V. KOMPLAYENS XIZMATI FAOLIYATINING FUNKSIONAL YO'NALISHLARI

Komplayens xizmati o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq faoliyatida quyidagi funksional yo'nalishlarini amalga oshiradi:

5.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida komplyens:

5.1.1. korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ISO 37001:2016 xalqaro standartiga javob beradigan korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali komplayens tizimini yaratish va O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi talablariga rioya

etishning institutsional mexanizmlarini ta'minlash (Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti bilan hamkorlikda);

5.1.2. Jamiyatdagi korrupsiya xavflarini baholash, xavflarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish va korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini yaratish;

5.1.3. Jamiyat xodimlari, shu jumladan, korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan lavozimlarda ishlaydigan xodimlar uchun korrupsiyaning oldini olish bo'yicha o'quv materiallari, video-audio roliklar va slaydlar ishlab chiqish;

5.1.4. o'quv rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etish, korrupsiya va firibgarlikka qarshi kurashish bo'yicha o'quv rejasiga muvofiq Jamiyatning barcha xodimlari uchun treninglar o'tkazish va ularni xodimlarning ishtiroki ta'minlashini nazorat qilish;

5.1.5. xizmat tekshiruvlari natijalari bo'yicha berilgan ma'lumotnomalarda korrupsiya faktlari bo'yicha xizmat tekshiruv ma'lumotlarining ishonchli va to'liq aks ettirilishini nazorat qilish;

5.1.6. korrupsiya omillarining namoyon bo'lishiga yordam beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni tahlil qilish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish (Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti bilan hamkorlikda);

5.1.7. korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'zaro bog'liq tamoyillar va aniq chora-tadbirlar majmuini belgilovchi Siyosat, qoidalar va tartiblarni va boshqa ichki (mahalliy) normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

5.1.8. korrupsiyaga oid faktlar yoki shubhalar haqida xabar berish uchun axborot kanallarining ishlashini ta'minlash (Axborot texnologiyalari departamenti, Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti bilan hamkorlikda);

5.1.9. korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Jamiyat zimmasiga yuklangan vazifalarning bajarilishini monitoring va nazorat qilish;

5.1.10. Jamiyat xodimlari va boshqaruv organlari a'zolari o'rtasida korrupsiyani korporativ boshqaruvning barcha darajalarida har qanday shakl va ko'rinishlarida rad etish zarurligi to'g'risida yagona tushunchani shakllantirish, korrupsiyaga oid masalalarda korrupsiyaga qarshi kurash yagona tamoyillari va talablarini shakllantirish bo'yicha samarali tizimni joriy etish;

5.1.11. zarur hollarda korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari va tizimlari samaradorligini oshirish, shu jumladan Jamiyat faoliyatidagi ("forenzik") korporativ firibgarlik, korrupsion sxemalar va boshqa noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish va aniqlash choralarini ko'rish maqsadida, "Katta to'rtlik" audit kompaniyalari yoki tegishli ekspert va tahliliy tuzilmalarini jalb qilish;

5.1.12. amaldagi qonunchilik va korrupsiyaga qarshi xalqaro ISO37001:2016 standartiga muvofiq Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar va vositalarni ishlab chiqish (Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti bilan hamkorlikda).

5.2. Monopoliyaga qarshi kurashish sohasida komplayens:

5.2.1. raqobat to'g'risidagi qonun talablarini buzilish xavfini aniqlash va baholash hamda ushbu xavflarni boshqarish;

5.2.2. Jamiyat faoliyatining raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini ta'minlash va nazorat qilish;

5.2.3. Jamiyat monopoliyaga qarshi komplayens tizimining samaradorligini baholash va ta'minlash;

5.2.4. Jamiyat faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish bo'yicha tadbirlarni tizimli tashkil etishni shakllantirish, Jamiyatning monopoliyaga qarshi Siyosatini ishlab chiqish;

5.2.5. Jamiyatga nisbatan davlatning nazorat qiluvchi organlari tomonidan jazo choralari va boshqa salbiy ta'sir choralari qo'llanishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar va tavsiyalar ishlab chiqish doirasida monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari va uni qo'llash amaliyotini nazorat qilish.

5.3. Sanksiyalarga muvofiqlik bo'yicha komplayens:

5.3.1. Jamiyat uchun sanksiya xavflarini kamaytirish maqsadida BMT va boshqa vakolatli xalqaro tashkilotlar, AQSH, Yevropa Ittifoqi davlatlari va dunyoning boshqa davlatlari tomonidan joriy etilgan va amalda bo'lgan sanksiyalarni monitoring qilish va tizimlashtirish ishlarini tashkil etish;

5.3.2. Jamiyat rahbariyatiga sanksiyalar rejimini tekshirish uchun tegishli dasturiy tizimlarini (shu jumladan avtomatlashtirilgan qidiruv tizimlariga asoslangan) sotib olish bo'yicha takliflar beradi;

5.3.3. Bitimlar, shartnomalar va boshqa tijorat shartnomalarini tuzishda kontragentlar faoliyatini tizimli tekshirishni tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish, sanksiya xavflarini oldini olish, Jamiyatga nisbatan sanksiyalar va boshqa salbiy choralar qo'llanilishiga yo'l qo'ymaslik, Jamiyatning imidji va ishbilarmonlik obro'siga zarar yetishining oldini olish maqsadida tranzaksiyaviy harakatlarni amalga oshirish;

5.3.4. tegishli Siyosat va tartiblarni, shuningdek, sanksiyalarga rioya qilishni qo'llashning uslubiy asoslarini ishlab chiqish;

5.3.5. sanksiyalarga rioya qilishni amalga oshirish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish va uning asosida Jamiyat uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

5.4. xavflarini boshqarish bo'yicha komplayens:

5.4.1. komplayens xavflarini boshqarish metodologiyasini ishlab chiqish, shu jumladan identifikatsiya va tahlil qilish, xavflar ehtimoli va ta'sirini baholash, javob choralarini ko'rish;

5.4.2. xavf hodisalaridan erta ogohlantiruvchi va oldini oluvchi, komplayens xavflarni amalga oshirish oqibatlarini yumshatish uchun dolzarb xarita, reestr va komplayens xavflari matritsasini ishlab chiqish va yuritish;

5.4.3. Jamiyatda xavflarni o'z vaqtida aniqlash va samarali boshqarishga yordam beradigan xavflarga bo'lgan munosabat madaniyatini rivojlantirish;

5.4.4. Jamiyat tarkibiy bo'linmalarining komplayens xavflarni boshqarish, shu jumladan "xavf egalari"ni aniqlash bo'yicha ishini uslubiy va amaliy muvofiqlashtirish;

5.4.5. "uch bosqichli himoya" modeli (yoki "3LoD") doirasida integratsiyalashgan muvofiqlik modelini, xavflarni boshqarish va ichki nazorat tizimini joriy etish;

5.4.6. biznes jarayonlarida komplayens nazoratini qo'llash natijalaridan ijobiy ishlab chiqarish va moliyaviy samaraga erishish uchun xavflarni boshqarishning biznes jarayonlariga integratsiyalashuviga ko'maklashish.

5.5. manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha komplayens:

5.5.1. O'zbekiston Respublikasining manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonun hujjatlari normalariga rioya etilishini ta'minlash (Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish boshqarmasi va Xodimlarni boshqarish Departamenti bilan hamkorlikda);

5.5.2. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olishning yagona tizimini yaratish va

bunday vaziyat yuzaga kelganda uning Jamiyat faoliyati jarayonlari va natijalariga salbiy ta'sirini istisno qilish;

5.5.3. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish tartiblarini, manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan vaziyatda Jamiyat xodimlarining xatti-harakatlari me'yorlari talablarini belgilash;

5.5.4. Xodimlarning shaxsiy manfaatlar qarorlar qabul qilishning xolisligiga va o'z xizmat vazifalarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni kuzatish, nazorat qilish va oldini olish (Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish boshqarmasi bilan hamkorlikda);

5.5.5. Boshqaruv organlariga Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, boshqarish va hal qilish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida zarur ma'lumotlarni taqdim etish.

5.6. *Xaridlar sohasi bo'yicha komplayens:*

5.6.1. Jamiyat xaridlar faoliyatini amalga oshirishida O'zbekiston Respublikasining davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga, belgilangan tegishli qoidalar va tartiblarga rioya etilishini nazorat qilish;

5.6.2. ochiqlik va oshkoralik tamoyillari asosida, shu jumladan eng yaxshi takliflarni tanlash tartibi doirasida xaridlar faoliyatining amalga oshirilishini tekshirish;

5.6.3. Xaridlar faoliyati jarayonida korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti bilan hamkorlikda kontragentlarni "ishonchliligi", shu jumladan manfaatlar to'qnashuvining yo'qligi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati mezonlariga muvofiqligini tekshirish tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

5.6.4. xaridlar sohasidagi xavflarning dolzarb reestrini (reestrini) shakllantirish va yuritish, uning asosida ularning ehtimoliylik darajasini va Jamiyat manfaatlariga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha majmuiy chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish.

5.7. *Xaridlar sohasi samaradorligi sohasi bo'yicha komplayens:*

5.7.1. xaridlar byudjetini rejalashtirishning ehtiyojlar va muddatlarini hisobga olgan holda talab qilinadigan nomenklaturaga, sifat va miqdorga muvofiqligini baholash, ushbu jarayonni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish;

5.7.2. joriy davrdagi tashqi/ichki bozordagi narx kon'yunkturasi bilan taqqoslash yo'li bilan xarid narxlari darajasining asoslilikini monitoring qilish;

5.7.3. shartnomalar loyihalarida ko'rsatilgan narxlarni xarid komissiyasining bayonnomalarida belgilangan narx parametrlari bilan solishtirish va asossiz nomuvofiqliklar aniqlanganda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish;

5.7.4. xaridlarni amalga oshirish jarayonida Jamiyatning tegishli xarajatlarini kamaytirish maqsadida muqobil takliflar bozorini tizimli o'rganish orqali, zarur hollarda narxlar bo'yicha takliflarni optimallashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

5.8. *Kadrlar siyosati sohasi bo'yicha komplayens:*

5.8.1. Jamiyat mansabdor shaxslari, kadrlar boshqaruvi bo'linmalari xodimlari va boshqa shaxslar tomonidan ishga qabul qilish, boshqa lavozimga o'tkazish (rotatsiya), shu jumladan, yuqori lavozimga (yetakchi lavozim) tayinlash jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish, tanlov asosidagi qabul tizimining "oshkoralik va adolatlilik" tamoyillariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga hamda tasdiqlangan ichki tartib va tartiblarga muvofiqligini tekshirish;

5.8.2. Jamiyatda mehnat qonunchiligi me'yorlari, ichki mehnat tartibi qoidalari,

shuningdek, boshqa ichki (mahalliy) mehnat tartib-qoidalariga rioya etilishi jarayonini majmuiy monitoring qilish tizimini tizimli ravishda amalga oshirish, hisobotlarni o'rganish natijalari asosida Jamiyat rahbariyatiga taqdim etish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

5.8.3. xodimlar va bo'linma boshliqlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini tizimli o'rganish, shu jumladan so'rovlar o'tkazish, jamoadagi ishbilarmonlik holati va ma'naviy-psixologik holatni baholash, o'rganish natijalari bo'yicha Jamiyatning rahbariyatiga taqdim etish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

5.8.4. Jamiyat tashkiliy tuzilmasini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat ichki (mahalliy) me'yoriy-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiqligini davriy tekshirish, shuningdek, xodimlar malakasini sifat jihatidan tizimli rivojlantirish maqsadida kadrlar boshqaruvi tizimini yetarli darajada huquqiy va tashkiliy axborot bilan ta'minlanganligi bo'yicha tahlil qilish;

5.8.5. Jamiyat mavjud tashkiliy tuzilmasini Jamiyatda "uch bosqichli himoya" (yoki "3LoD") modelini joriy etish jarayonidagi o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini tekshirish maqsadida modellashtirilgan sinovdan o'tkazish.

VI. KOMPLAYENS XIZMATI HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Komplayens xizmati unga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

6.1.1. Jamiyatning boshqa tarkibiy bo'linmalaridan har qanday ma'lumotni, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, bo'linmalar faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar va yo'riqnomalarni, hujjatlar, hisobotlar, ma'lumotlar, ma'lumotnomalar, hisob-kitoblar, xulosalar, tushuntirishlarni shu jumladan, komplayens xizmatiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan tijorat va rasmiy sirlardan tashkil topgan boshqa materiallarni komplayens xizmati tomonidan belgilangan muddatlarda so'rash va olish;

6.1.2. So'ralgan ma'lumotlarning o'z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish. 6.1.1-bandga muvofiq komplayens xizmati tomonidan belgilangan muddatda taqdim etilmasa, taqdim etish asossiz kechiktirilsa va to'liq taqdim etilmagan taqdirda, bunday bo'linmalarning rahbarlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortiladilar;

6.1.3. Ixtisoslashgan tuzilmalarning rahbarlaridan har qanday darajadagi "xavf egalarini" tayinlashni talab qilish va xavflar xaritasini va reestrini dolzarb holatda saqlashlari bo'yicha faoliyatini nazorat qilish;

6.1.4. Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, monopoliyaga qarshi siyosat, xavflarni boshqarish siyosati, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va Jamiyatning tarkibiy bo'linmalarida boshqa ichki (mahalliy) normativ hujjatlarga rioya etilishini tekshirish;

6.1.5. Komplayens xizmati zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun Jamiyat rahbariyati tomonidan o'tkaziladigan yig'ilishlarda (shu jumladan Boshqaruv majlislarida) ishtirok etish va qatnashish;

6.1.6. Korrupsiya, firibgarlik va manfaatlar to'qnashuvi (zarur bo'lganda, Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti bilan birgalikda) bo'yicha ichki tekshiruvni tashkilotlashtirish va monitoring qilish. Xizmat tekshiruvlari materiallarini to'siqsiz va to'liq olish;

6.1.7. Komplayens xizmatining rejalashtirilgan tadbirlarini va rahbariyatni

individual ko'rsatmalarni amalga oshirishda tegishli rahbarlar bilan kelishilgan holda boshqa bo'linmalar xodimlarini jalb qilish;

6.1.8. Jamiyat rahbariyatidan komplayens xizmati boshlig'iga yuklangan vazifalarni bajarish maqsadida zarur bo'lgan tashkiliy va texnik shart-sharoitlarni ta'minlashni talab qilish;

6.1.9. Komplayens xizmati vakolatlari doirasida aniqlangan barcha kamchiliklar to'g'risida Jamiyat rahbariyati, odob - ahloq qo'mitasi va korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligini xabardor qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritish;

6.1.10. Odob - axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi bilan joriy va operativ masalalarini muhokama qilish hamda siyosat, reglament, nizom va tartiblarni keyinchalik Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlatish uchun muhokama qilish.

6.1.11. Zarur hollarda, joriy moliyaviy masalalar, shu jumladan komplayens xizmati xodimlariga rag'batlantiruvchi mukofotlar to'lash masalalarini Odob - axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi bilan muhokama qilish.

6.1.12. Xavflarni boshqarish va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlarda belgilangan mustaqillik va komplayens xizmati faoliyatiga aralashmaslik tamoyillariga rioya qilishni talab qilish;

6.1.13. Xizmat faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan Jamiyat rahbariyatiga ko'rib chiqish uchun takliflar kiritish;

6.1.14. Jamiyat nomidan o'z vakolatlari doirasida turli forumlar, konferensiyalar, boshqa tashkilot va muassasalarda vakillik qilish.

6.2. Komplayens xizmatining majburiyatlari va javobgarligi quyidagilardan iborat:

6.2.1. O'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalar, Jamiyat Kuzatuv kengashi va boshqa Boshqaruv organlarining topshiriqlarining sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

6.2.2. Jamiyatda komplayens tizimining ishlashini tartibga soluvchi Kodekslar, siyosatlar va boshqa hujjatlarni yangilab turish;

6.2.3. Komplayens nazorat qilish natijalari bo'yicha hujjatlarda belgilangan ma'lumotlarning obyektivligi, xolisligi va ishonchliligini ta'minlash;

6.2.4. Tijorat siri va shaxsiy ma'lumotlar bilan bog'liq ma'lumotlar bilan ishlashni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning me'yoriy hujjatlari talablariga rioya etish.

6.2.5. Komplayens xizmati boshlig'ining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- komplayens, komplayens nazorat qilish bo'yicha siyosat va tartib-qoidalarni va ushbu Nizomni, komplayens xizmati xodimlari uchun majburiy bo'lgan lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqish;

- komplayens xizmat xodimlari tomonidan o'z lavozim majburiyatlariga, komplayens xizmat faoliyatini tartibga soluvchi siyosat va tartib-qoidalariga rioya etilishini ta'minlash;

- Komplayens xizmatiga malakali xodimlarini tanlash va ularning ishini bevosita boshqarish, xodimlarni o'qitishni tashkil etish;

- Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi va Kuzatuv kengashiga hisobotlarni o'z vaqtida taqdim etish;

- o'z vazifalarini bajarish chog'ida aniqlangan qonunlar, qoidalar va standartlarning buzilishi, korrupsiya va/yoki firibgarlik faktlari to'g'risida Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasini xabardor qilish;

- Komplayens xizmati rahbari va/yoki xodimlarining o'z vazifalarini bajarishiga

to'sqinlik qilayotgan barcha holatlar to'g'risida Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasini darhol xabardor qilish;

- Lavoziim yo'riqnomasiga muvofiq boshqa funksiyalar va vazifalarni bajarish.

6.2.6. Komplayens xizmati xodimlarining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq ma'lumotlar va xizmat vazifalarini bajarish chog'ida olingan boshqa ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;

- axborot, ma'lumotlar va tekshirish materiallarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda saqlash;

- komplayens xavflarni boshqarishning maqsad va vazifalariga erishish uchun o'z vakolatlari doirasida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- o'z vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilayotgan barcha holatlar to'g'risida komplayens xizmati boshlig'ini darhol xabardor qilish;

- Ixtisoslashtirilgan malaka oshirish kurslarini muntazam ravishda yakunlash.

6.3. Komplayens xizmati xodimlari quyidagilar uchun javobgardirlar:

- o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida olingan ma'lumotlarning ishonchliligi;

- xizmat vazifalarini bajarish chog'ida olingan ma'lumotlarning va tijorat sirini tashkil etuvchi har qanday ma'lumotlarning qonun hujjatlariga muvofiq maxfiyligini ta'minlash;

- xizmat vazifalarini bajarishda olingan ma'lumotlardan shaxsiy maqsadlarda yoki uchinchi shaxslar manfaatlarida foydalanish;

- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalaridan olingan hujjatlarning saqlanishi va qaytarilishini ta'minlash;

- zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganligi (talab darajasida) uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida javobgar bo'ladi.

6.4. Komplayens xizmati rahbari quyidagilar uchun mas'uldir:

- ushbu Nizomning hamda komplayens nazorat qilish faoliyatining O'zbekiston Respublikasining normativ hujjatlariga va komplayens funksiyalari bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiqqligi;

- komplayens xizmati faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

- xodimlarga topshiriqlarni taqsimlash va ularning bajarilishini nazorat qilish;

- komplayens nazorat qilish tartib-qoidalarini o'z vaqtida amalga oshirish;

- komplayens xizmatining yillik byudjetini ishlab chiqish va tasdiqlangan byudjet doirasida xarajatlarni nazorat qilish;

- komplayens xizmati xodimlarining malakasini oshirish;

- Jamiyatning Kuzatuv kengashi, Odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi, Boshqaruvi va tarkibiy bo'linmalariga zarur choralar ko'rish uchun hisobotlar taqdim etish;

- qonunlar, qoidalar va standartlarga rioya qilmaslik bilan bog'liq kamchiliklar va buzilishlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarning o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishini, aniqlangan buzilish va kamchiliklarni bartaraf etish choralari nazorat qilish;

- Odob - axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi va Kuzatuv kengashiga komplayens nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish.

6.5. Mustaqillik va obyektivlikni ta'minlash uchun komplayens xizmati xodimlariga quyidagilar taqiqlanadi:

- Jamiyatning tadbirkorlik va (yoki) operatsion faoliyati bilan bog'liq majburiyatlarni bajarish;

- komplayens nazorat qilish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday qarorlarni qabul

qilish jarayonida ishtirok etish;

- bitimlarni tasdiqlash, komplayens nazorat qilish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan holatlar bundan mustasno;

- komplayens xizmati tarkibida bo'lmagan va komplayens xizmati ishiga yordam berish uchun tayinlanmagan xodimlarni boshqarish.

VII. XIZMAT XODIMLARIGA TALABLAR

7.1. Komplayens xizmati vazifalarni samarali va professional tarzda bajarishga qodir bo'lgan layoqatli xodimlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

7.2. Komplayens xizmati tarkibiga JDLTMvaOQQTM, korrupsiya va firibgarlikka qarshi kurashish, mijozlar, Jamiyat xodimlari va uchinchi shaxslarning huquqlariga rioya qilish sohasida zarur bilim va/yoki ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar kiritilishi kerak.

7.3. Komplayens xizmati xodimlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

7.3.1. oliy iqtisodiy, texnik yoki yuridik ma'lumotga ega bo'lishi;

7.3.2. metallurgiya sanoatining iqtisodiy, yuridik yoki texnologik sohasida kamida ikki yillik ish tajribasiga ega bo'lishi;

7.3.3. O'zbekiston Respublikasining JDLTMvaOQQTM to'g'risidagi qonun hujjatlari, korrupsiya va firibgarlikka qarshi kurashish sohasidagi bilimlarga ega bo'lishi;

7.3.4. tadbirkorlik subyektlarida komplayens va komplayens funksiyalari bo'yicha qonunchilik va xalqaro standartlar sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi.

7.4. Komplayens xizmati xodimlari quyidagilarga majbur:

7.4.1. biznesning o'ziga xos xususiyatlari va Jamiyat faoliyatining tabiati haqida yaxshi ma'lumotga ega bo'lish. Shu bilan birga, yuqori darajadagi komplayens xizmati xodimlari xavflarni boshqarish, komplayens va ichki nazorat tizimidagi xavflar va mumkin bo'lgan zaif tomonlarning mavjudligini yetarli darajada baholash uchun metallurgiya sanoatida bevosita tajribaga ega bo'lishi kerak;

7.4.2. JDLTMvaOQQTM, korrupsiya va firibgarlikka qarshi kurashish qonun hujjatlari talablariga, Jamiyat faoliyati sohasidagi qoidalar va standartlarga, Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlariga tegishli standartlar va me'yoriy hujjatlarga oid bilim va ko'nikmalarining doimiy ravishda yangilab turishi;

7.4.3. ishlash jarayonida komplayens va ichki nazorat tizimlarining zaif tomonlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan bilimlarga, shuningdek, ushbu zaif tomonlarni baholash va tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lish;

7.4.4. halollik va xulq-atvorning yuqori axloqiy me'yorlariga sodiqlik kabi shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi.

VIII. KOMPLAYENS XIZMATI VA TARKIBIY BO'LINMALAR O'RTASIDA O'ZARO MUNOSABATLAR

8.1 Komplayens xizmatining Jamiyat tarkibiy va hududiy bo'linmalari bilan o'zaro hamkorligi konstruktiv hamkorlik, ishbilarmonlik etikasi tamoyillari va sheriklik madaniyati asosida quriladi.

8.2 Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari xodimlari komplayens xizmatiga o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirishda yordam berishga majburlar, xususan, quyidagilar:

8.2.1. Komplayens xizmati tomonidan belgilangan muddatda barcha hujjatlarni va barcha zarur ma'lumotlarni komplayens xizmati talabiga binoan taqdim etish;

8.2.2. aniqlangan xavf va huquqbuzarliklarni xolisona muhokama qilish;
8.2.3. yuzaga kelayotgan muammolar va savollarga birgalikda konstruktiv yechim topish.

8.3. Komplayens xizmati bilan o'zaro hamkorlikda tarkibiy bo'linmalar, jumladan, quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

8.3.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, monopoliyaga qarshi kurashish Siyosati, sanksiyalar bo'yicha komplayens Siyosati, xavflarni boshqarish Siyosati, manfaatlar to'qnashuvi Nizomi va komplayens xizmati tomonidan ishlab chiqilgan boshqa kodeks va siyosatlariga rioya etilishini tekshirishda komplayens xizmatiga ko'maklashadilar;

8.3.2. Jamiyatda "uch bosqichli himoya" (yoki "3LoD") modelini tatbiq etish bo'yicha komplayens xizmati faoliyatida muntazam ishtirok etadilar;

8.3.3. "xavf egalari"ni aniqlash bo'yicha Komplayens xizmati bilan qo'shma ishchi uchrashuvlar, majlislar va muhokamalar o'tkazadilar;

8.3.4. xavflar xaritasi va reestrini dolzarbligini saqlashda ishtirok etadilar;

8.3.5. Hisobot davrida amalga oshirilgan komplayens xavflari to'g'risida komplayens xizmatini xabardor qiladi va komplayens xizmati talabiga binoan boshqa ma'lumotlarni taqdim etadilar.

8.4. Komplayens xizmati Jamiyatning sho'ba va hududiy bo'linmalari bilan komplayens xizmati vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha o'zaro hamkorlik qiladi.

8.5. Komplayens xizmati va Jamiyatning boshqa tarkibiy bo'linmalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tartibi amaldagi qonunchilikka muvofiq ushbu Nizom hamda Jamiyatning boshqa ichki hujjatlari bilan belgilanadi.

IX. KOMPLAYENS XIZMATI XODIMLARINI MODDIY, IJTIMOY VA TEXNIK TA'MINLANGANLIGI

9.1. Komplayens xizmati xodimlariga Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lash tizimi amal qiladi.

9.2. Komplayens xizmati xodimlariga Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan ijtimoiy ta'minot, kafolatlar va turli kompensatsiya to'lovlari, jumladan, har xil turdagi mukofotlar, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha kasallik ta'tilini to'lash, yillik mehnat ta'tili bilan bog'liq to'lovlar barcha huquqlar, shuningdek oziq-ovqat va sayohat uchun pul kompensatsiyasi va boshqalar amal qiladi.

9.3. Komplayens xizmati xodimlari Jamiyat hisobidan zarur ish sharoitlari, jumladan, ofis xonalari, shuningdek, mebel, orgtexnika, kanselyariya va boshqalar bilan ta'minlanadi.

X. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Nizom Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va bekor qilinmaguncha amal qiladi.

10.2. Nizomga o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritish Jamiyat Kuzatuv kengashi qarori bilan amalga oshiriladi.

10.3. Nizom talablarini buzish (bajarmaslik) aybdor shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlik choralari qo'llashga olib kelishi mumkin.